



FAOLIYATINI BUXORO BILAN BOG'LAGAN JADIDLAR TARIXIDAN

Nutfullayeva Munisa Shonazar qizi

BuxDU, Tarix yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Umarov Baxtishod Baxridin o'g'li

Ilmiy rahbar, BuxDU Arxeologiya va Buxoro

tarixi kafedrası o'qituvchisi, t.f.f.d.(PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19691827>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Jadidchilik harakati doirasida faoliyat yuritib, o'z hayoti va ijodini Buxoro shahri bilan bog'lagan jadid namoyandalarning tarixiy o'rni va faoliyati tahlil qilinadi. Xususan, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdulhamid Cho'lpon kabi ma'rifatparvarlarning Buxorodagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ta'siri, yangi usul maktablarini tashkil etishdagi sa'y-harakatlari hamda milliy uyg'onish g'oyalari targ'ib etishdagi roli yoritiladi.


Kalit so'zlar: Buxoro, jadidchilik harakati, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulhamit Cho'lpon, matbuot.

XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Buxoro amirligida ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotda muhim o'zgarishlar yuz bera boshladi. Bu davrda mavjud an'anaviy ta'lim tizimi ya'ni maktab va madrasalarning eskirgan usullari jamiyat taraqqiyotiga to'sqinlik qilayotgani ma'rifatparvar ziyolilar tomonidan tobora chuqurroq anglab yetildi. Natijada jamiyatni yangilashga qaratilgan islohotchilik g'oyalari shakllanib, keyinchalik Jadidchilik harakati sifatida namoyon bo'ldi.

Buxoroda jadidchilikning vujudga kelishi murakkab va bosqichma-bosqich kechgan jarayon bo'lib, unga nafaqat mahalliy ma'rifatparvarlarning faoliyati, balki Rossiya imperiyasi, Eron va Usmonli imperiyasi hududlarida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Ushbu tashqi omillar va ichki ehtiyojlar uyg'unligi natijasida jadidchilik harakati Buxoroda asta-sekin shakllanib, milliy uyg'onish va ozodlik g'oyalari asoslangan mafkuraviy yo'nalishga ega bo'ldi.

Jadidlarning asosiy maqsadi jamiyatni ilm-ma'rifat asosida rivojlantirish, ta'lim tizimini isloh qilish va aholining madaniy saviyasini yuksaltirishdan iborat edi. Shu bilan birga, ular milliy o'zlikni anglash, ijtimoiy adolatni qaror toptirish hamda mustaqil fikrlaydigan, erkin shaxsni shakllantirishni o'z faoliyatlarining ustuvor vazifasi deb bildilar. Natijada Buxoroda ma'rifatparvarlik g'oyalari keng yoyilib, jamiyatda yangilanish jarayonlari uchun muhim zamin yaratildi.

Mahmudxo'ja Behbudiy (1875–1919) Turkiston jadidchilik harakatining yetakchi namoyandalaridan biri bo'lib, uning ma'rifiy va ijtimoiy-siyosiy faoliyati Buxoro bilan ham bevosita bog'liqdir. U 1875-yil 20-yanvarda Samarqand





shahrida muftiylar oilasida tavallud topgan bo'lib, dastlabki ta'limni o'z yaqin qarindoshlari qo'lida olib, arab tili grammatikasini o'rgangan.

Behbudiy keyinchalik Samarqand va Buxoro madrasalarida tahsil olgan. Manbalarga ko'ra, u dastlab Samarqandda, so'ngra Buxoroda o'qishni davom ettirgan. Biroq oilaviy sharoitning og'irlashuvi — 1893-yilda onasi va 1894-yilda otasining vafoti sababli u ta'limni to'liq yakunlay olmagan. Shunga qaramay, aynan Buxoro madrasalaridagi tahsil davri uning dunyoqarashi shakllanishida muhim bosqich bo'ldi. Behbudiy bu yerda mavjud ta'lim tizimining eskirganligi, diniy ulamolar orasidagi mutaassiblik va ilmiy saviyaning pastligiga guvoh bo'ladi.

Uning Turkestanskiye vedomosti gazetasi muxbiri bilan 1915-yildagi suhbatida Samarqand va Buxoro madrasalaridagi ta'lim holatini tanqid qilgani bu fikrni tasdiqlaydi. Behbudiy o'z xotiralarida madrasa muhitidagi qoloqlik va isloh zaruratini alohida ta'kidlaydi.

Behbudiyning Buxoro bilan aloqalari faqat tahsil davri bilan cheklanib qolmagan. U keyingi faoliyati davomida ham Buxoroga bir necha bor tashrif buyurib, bu yerda jadidchilik g'oyalarini targ'ib etishga harakat qilgan. Xususan, uning Oyna jurnalida e'lon qilingan maqolalarida Buxorodagi ijtimoiy turg'unlik, ta'lim tizimidagi kamchiliklar va islohot zarurati keskin tanqid ostiga olingan. U madrasalarda o'qitish usullarini yangilash, "usul-i jadid" maktablarini joriy etish zarurligini ilmiy asosda yoritib bergan.

Shuningdek, Sadoyi Turkiston gazetasida e'lon qilingan maqolalarida ham Buxoroning o'sha davrdagi ijtimoiy-madaniy holatiga baho berib, uni "Buxoroyi sharif" sifatida tilga olgan holda, mazkur hududning tarixiy nufuzi va ayni paytdagi tanazzul holatini solishtirma tarzda ko'rsatadi. Uning Buxoroga doir safar taassurotlari va kuzatuvlari jadid matbuotida muhim manba sifatida namoyon bo'ladi.

Behbudiy vafotidan keyin ham uning nomi Buxoro bilan bog'liq holda e'zozlangan. Jumladan, 1923-yilda e'lon qilingan ma'lumotlarga ko'ra, Buxoro Respublikasida uning xotirasini abadiylashtirish maqsadida ma'muriy hududlardan biriga uning nomini berish masalasi ko'rib chiqilgan.

Abdulla Avloniy (1878–1934) o'zbek ma'rifatparvarlik harakatining yetakchi namoyandalaridan biri bo'lib, uning pedagogik va adabiy faoliyati Turkiston jadidchiligi rivojida muhim o'rin tutadi hamda Buxoro jadidchilik muhitiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatgan. U 1878-yil 12-iyulda Toshkent shahrining Mergancha mahallasida tavallud topgan. Dastlab O'qchi mahallasidagi eski maktabda savod chiqargan, 1890-yildan mahalliy madrasada, keyinchalik





Shayxontohurdagi Abdumalikboy madrasasida tahsil olgan. Biroq ijtimoiy-iqtisodiy sharoitning og'irligi sababli ta'limini uzluksiz davom ettira olmagan va mehnat faoliyati bilan shug'ullanishiga to'g'ri kelgan.

Avloniy 1904-yilda Toshkentning Mirobod mahallasida yangi usuldagi jadid maktabini tashkil etib, amaliy pedagogik faoliyatga kirishdi. Shu davrdan boshlab u ma'rifatparvarlik g'oyalarini targ'ib etish bilan bir qatorda adabiy ijod bilan ham faol shug'ullandi. Uning she'rlari "Hijron" taxallusi bilan, publitsistik maqolalari esa turli imzolar ostida e'lon qilindi. 1914–1915-yillarda Ubaydulla Xo'jayev bilan hamkorlikda Sadoyi Turkiston gazetasida faoliyat yuritdi.

Avloniy tomonidan tashkil etilgan "Jamiyati xayriya" (1909) jamiyati hamda uning pedagogik merosi Turkiston hududida ma'rifat ishlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi. U tomonidan yaratilgan "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim" (1912), "Turkiy guliston yoxud axloq" (1913) kabi darslik va qo'llanmalar yangi usul maktablari uchun muhim metodik asos bo'lib xizmat qildi va ta'lim tizimining yangilanishiga sezilarli hissa qo'shdi.

Mazkur asarlar va Avloniyning pedagogik qarashlari bevosita Jadidchilik harakati doirasida keng tarqalib, Buxoro jadidlari faoliyatiga ham kuchli g'oyaviy ta'sir ko'rsatdi. Xususan, uning ta'limni modernizatsiya qilish, axloqiy tarbiya va milliy o'zlikni anglashga oid qarashlari Buxorodagi islohotparvar ziyolilar tomonidan qabul qilinib, mahalliy sharoitga moslashtirilgan holda amaliyotga tatbiq etildi.

1897-yilda Andijon shahrining Qatortarak mahallasida tug'ilgan Abdulhamid Cho'lpon o'zbek jadid adabiyoti va ijtimoiy tafakkurining yirik namoyandalaridan biri hisoblanadi. U dastlab an'anaviy maktabda savod chiqargan, keyinchalik rus-tuzem maktabida tahsil olib, zamonaviy bilimlar bilan tanishgan. 1914-yilda Toshkentga kelishi uning ijtimoiy-siyosiy va adabiy faoliyatida muhim burilish yasab, Sadoyi Turkiston gazetasi bilan hamkorlik orqali jadidchilik g'oyalarini targ'ib etish jarayoniga faol kirib kelishiga zamin yaratdi.

1916–1917-yillarda Orenburgda yashab, mahalliy boshqird hukumati idoralarida kotib lavozimida faoliyat yuritgan. So'ng Toshkentga qaytib, 1920-yilgacha TurkRosTA tizimida ishlagan. 1920-yilda Bokuda o'tkazilgan Sharq xalqlari qurultoyida ishtirok etgan Cho'lpon shu yili Abdurauf Fitrat taklifi bilan Buxoroga boradi. Bu yerda u o'zbek tilida nashr etilgan "Buxoro axbori" gazetasiga rahbarlik qilib, jadidchilik g'oyalarini targ'ib etishda faol ishtirok etadi. Uning Buxorodagi faoliyati qisqa muddat davom etgan bo'lsa-da, mazkur davr jadid matbuoti va ma'rifatparvarlik harakati rivojida muhim bosqich hisoblanadi.





Cho'lpon keyinchalik Toshkentga qaytib, adabiyot va madaniyat sohasida samarali faoliyat olib bordi. 1924–1926-yillarda Moskvada yashab, o'zbek drama studiyasiga rahbarlik qildi. 1930-yillarda jadid ziyolilariga qarshi boshlangan siyosiy tazyiqlar uni ham chetlab o'tmadi. Shunga qaramay, u ijodiy faoliyatini davom ettirdi. 1937-yil 14-iyulda qamoqqa olinib, 1938-yil 4-oktabrda qatl etilgan.

Buxoro ma'rifatparvarlik faoliyatida o'zining munosib hissasini qo'shgan jadidlaridan yana biri (1895–1931) kiradi. U Buxoro jadidchilik muhitida faoliyat yuritgan ma'rifatparvar sifatida matbuot sohasida alohida o'rin egallaydi. Uning publitsistik merosida jamiyat hayotining dolzarb masalalari, xususan, oila va xotin-qizlar mavzusi muhim o'rin tutadi.

Said Ahroriy 1918–1931-yillar davomida “Turk so'zi”, “Ishtirokiyun”, “Uchqun”, “Buxoro axbori”, “Ozod Buxoro”, “Zarafshon”, “Qizil O'zbekiston” gazetalarida, shuningdek, “Alanga”, “Maorif va madaniyat”, “Maorif va o'qituvchi” jurnallarida o'nlab maqola, badia va she'rlar e'lon qilgan. Uning “Buxoro jug'rofiyasi” darsligi hamda “Oila kitobi” (“Xonim-qizlarimizga tortiq” va “Sovchi” qismlaridan iborat) asarlari ma'rifatparvarlik ruhida yaratilgan muhim pedagogik manbalardan hisoblanadi.

Said Ahroriy 1920-yilda Buxoroga kelib, Buxoro Xalq Sovet Respublikasining rasmiy matbuot organi — “Buxoro axbori” gazetasida faoliyat boshlaydi hamda 1920-yil 9-sentabrdan 1921-yil 30-iyungacha (41-soniga qadar) uning bosh muharriri lavozimida ishlaydi. Ushbu davrda u jadid matbuoti orqali ijtimoiy islohotlar, ma'rifat va madaniyatni rivojlantirish g'oyalarini faol targ'ib etgan.

Xulosa. Jadidchilik harakati tarixini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, Buxoro nafaqat mahalliy jadidlar faoliyat yuritgan markaz, balki turli hududlardan kelgan ma'rifatparvarlar g'oyalari kesishgan muhim intellektual makon sifatida namoyon bo'lgan. Bu yerda shakllangan jadidchilik muhiti ichki va tashqi omillar ta'sirida rivojlanib, jamiyatni yangilashga qaratilgan keng qamrovli harakatga aylangan.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdulhamid Cho'lpon, Said Ahroriy kabi jadidlar Buxoroda doimiy faoliyat yuritmagan bo'lsalar-da, ularning g'oyaviy va ma'rifiy ta'siri bu hududdagi islohotchilik jarayonlariga sezilarli hissa qo'shgan. Ayniqsa, matbuot, ta'lim va adabiyot orqali ilgari surilgan yangi qarashlar Buxoro jadidlarining dunyoqarashi shakllanishida muhim rol o'ynagan.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. 1-jild. — Toshkent: Akademik nashr, 2021.





2. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. 2-jild. — Toshkent: Akademik nashr, 2021.
3. Абдулла Авлоний. Танланган асарлар. — Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. — 320 б.
4. Abdurashidov Z. Jadidlar: Mahmudxo'ja Behbudiy. — Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022.
5. Sadriddin Ayni. Asarlar: 8 tomlik. 1-tom. — Toshkent: O'zSSR davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1963.
6. Fayzulla Xo'jayev. Buxoro inqilobining tarixiga materiallar. — Toshkent: Fan, 1997.
7. Ҳайитов Ш. Биринчи муҳаррир. "Бухоронома". 2003 йил 10 сентябр
8. Said Ahroriy. Tanlangan asarlar. - T.: Ma'naviyat, 2001.

